

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKILOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	80
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLİYASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	84
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIYASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI

Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrası assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari hamda fiskal boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibi, davlat moliyaviy nazorati tizimining rivojlanish tendensiyalari hamda raqamli texnologiyalarni joriy etishning fiskal samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, “Open Budget”, elektron soliq tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring platformalari kabi raqamli mexanizmlarning budjet jarayonlari shaffofligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat moliyasini boshqarishda sun'iy intellekt, Big Data va real vaqt monitoring tizimlaridan foydalanish moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish hamda fiskal risklarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi va davlat xarajatlari samaradorligini oshirish bilan bog'liq ayrim muammolar mavjudligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: davlat moliyasi, davlat budjeti, fiskal siyosat, moliyaviy nazorat, raqamli iqtisodiyot, Open Budget, Big Data, sun'iy intellekt, fiskal samaradorlik, budjet xarajatlari.

Abstract. This article examines the modern directions for improving the public finance system of the Republic of Uzbekistan and enhancing fiscal management efficiency. The study analyzes the structure of state budget revenues and expenditures, the development trends of the public financial control system, and the impact of digital technologies on fiscal efficiency. Particular attention is given to the role of digital mechanisms such as the Open Budget platform, electronic tax systems, and automated monitoring platforms in increasing the transparency of budget processes. The findings indicate that the application of artificial intelligence, Big Data technologies, and real-time monitoring systems contributes significantly to improving financial control efficiency and reducing fiscal risks. At the same time, certain challenges related to strengthening the financial independence of local budgets and improving the efficiency of public expenditures were identified.

Keywords: public finance, state budget, fiscal policy, financial control, digital economy, Open Budget, Big Data, artificial intelligence, fiscal efficiency, budget expenditures.

Аннотация. В данной статье исследуются современные направления совершенствования системы государственных финансов Республики Узбекистан и вопросы повышения эффективности фискального управления. В исследовании проанализированы структура доходов и расходов государственного бюджета, тенденции развития системы государственного финансового контроля, а также влияние внедрения цифровых технологий на фискальную эффективность. Освещена роль таких цифровых механизмов, как “Open Budget”, электронные налоговые системы и автоматизированные платформы мониторинга в обеспечении прозрачности бюджетных процессов. Результаты исследования показывают, что использование искусственного интеллекта, технологий Big Data и систем мониторинга в реальном времени способствует повышению эффективности финансового контроля и снижению фискальных рисков. Вместе с тем выявлены отдельные проблемы, связанные с обеспечением финансовой самостоятельности местных бюджетов и повышением эффективности государственных расходов.

Ключевые слова: государственные финансы, государственный бюджет, фискальная политика, финансовый контроль, цифровая экономика, Open Budget, Big Data, искусственный интеллект, фискальная эффективность, бюджетные расходы.



O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy iqtisodiy talablar asosida rivojlantirish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining modernizatsiyalashuvi hamda raqamli iqtisodiyot elementlarining joriy etilishi davlat moliyasi tizimining samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, davlat budjeti mablag'laridan oqilona foydalanish, fiskal barqarorlikni ta'minlash, budjet taqchilligini kamaytirish hamda davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Davlat moliyasi tizimi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy moliyaviy tayanchi sifatida davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, davlat krediti, mahalliy budjetlar hamda davlat moliyaviy nazorati institutlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tizim orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, investitsion loyihalarni amalga oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifalari bajariladi. Shu bois davlat moliyasi tizimining samaradorligi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va fiskal xavfsizligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat moliyasi tizimini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli¹ Farmonida davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, budjet mablag'larining shaffofligini ta'minlash hamda fiskal intizomni kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida davlat moliyasi tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayonlari jadallashmoqda.

Mamlakat davlat budjeti daromadlari tarkibida asosiy ulushni soliq tushumlari tashkil etadi. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i va aksiz soliqlari davlat budjeti daromadlarining muhim manbalari hisoblanadi. So'nggi yillarda soliq ma'murchiligi tizimining raqamlashtirilishi natijasida budjet daromadlari hajmi sezilarli darajada oshdi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikalari hamda avtomatlashtirilgan soliq monitoring tizimlari yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish va soliq tushumlarining oshishiga xizmat qilmoqda.

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida esa ijtimoiy soha xarajatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu holat aholining turmush darajasini yaxshilash hamda inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish va budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan muhim islohotlardan biri davlat moliyaviy nazorati tizimini modernizatsiya qilish bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda davlat moliyaviy nazorati inspeksiyalari hamda Hisob palatasi faoliyatida raqamli monitoring tizimlari keng joriy etilmoqda. Bu esa davlat mablag'laridan foydalanish ustidan real vaqt rejimida nazorat o'rnatish, moliyaviy xatolarni tezkor aniqlash va korrupsiya xavfini kamaytirish imkonini bermoqda.

Davlat moliyasi tizimida "Open Budget" platformasining joriy etilishi budjet jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur platforma orqali fuqarolar budjet mablag'larining sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa davlat moliyasini boshqarishda ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, hududlarda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada kuchaytirish hamda davlat xarajatlarini rejalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bu esa fiskal barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, davlat moliyasi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash va kiberxavfsizlik tizimlarini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat moliyasini samarali boshqarish uchun fiskal siyosatni raqamlashtirish, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish hamda elektron budjet tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya kabi davlatlarda davlat moliyasi tizimi to'liq elektron platformalar asosida boshqarilib, bu fiskal samaradorlikning sezilarli darajada oshishiga olib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va fiskal samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Davlat moliyasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish hamda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish kelgusida davlat moliyasi tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, budget mablag'laridan samarali foydalanish hamda fiskal boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi budget jarayonlarining shaffofligini oshirish, soliq tushumlarini ko'paytirish va moliyaviy nazorat samaradorligini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tahlillar natijasida elektron soliq tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring platformalari, elektron davlat xaridlari hamda "Open Budget" kabi raqamli tizimlarning joriy qilinishi davlat moliyasi tizimining zamonaviylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Davlat moliyasini boshqarishda sun'iy intellekt, Big Data va real vaqt monitoring texnologiyalaridan foydalanish fiskal samaradorlikni oshirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida davlat budgeti daromadlarini aniq prognozlash, moliyaviy oqimlarni monitoring qilish hamda korrupsion xavflarni kamaytirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Kelgusida davlat moliyasi tizimini yanada takomillashtirish uchun fiskal boshqaruvning raqamli platformalarini integratsiyalash, moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish, davlat xarajatlarini optimallashtirish hamda xalqaro standartlarga mos zamonaviy fiskal boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada davlat moliyasi tizimining barqarorligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash imkoniyatlari yanada kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/5031048>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori <https://lex.uz/docs/-4800657>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi // URL: <https://lex.uz/mact/-2304138>
5. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. — 712 b.
6. Jo'rayev A.S. Davlat moliyasi va fiskal siyosatni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. — Toshkent, 2023. — №4. — B. 45–53.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100